



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2026
1-сон



SERVIS

ILMIY-AMALIY JURNAL 2026 yil, 1-soni

Muassis: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2008 yil 31 dekabrda
0561-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

O‘zR OAK Riyosatining 19.03.2017 y., 239/5-sonli qarori bilan e‘tirof etilgan

Tahririyat a‘zolari:

Mas‘ul kotib:

i.f.d., prof. M.Q.Pardaev

Muharrirlar:

i.f.d., dotsent F.A.Safarov
PhD, dotsent I.M.Pardaeva
PhD, I.Sh.Ernazarova

Texnik muharrir:

katta o‘qituvchi F.O.O‘roqov

Korrektor:

PhD, dotsent v.b.
T.I.Yahyoyev

Sahifalovchi:

PhD, dotsent v.b.
H.N.Ochilova

1 yilda 4 marotaba
chop etiladi.

**O‘zbekiston hududida
tarqatiladi.**

Tahririyat manzili:

140100, Samarqand shahar,
Amir Temur ko‘chasi, 9-uy,

tel.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

faks: +998(366)231-12-53
el.pochta:

samisiservis@mail.ru

Tahrir hay‘ati raisi:

M.E.Po‘latov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori,
i.f.d., professor

Tahrir hay‘ati raisi o‘rinbosari:

M.Q.Pardayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Tahrir hay‘ati a‘zolari:

M.M.Muxammedov – SamISI professori, iqtisod fanlari
doktori

D.R.Zaynalov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Murtazayev – TDIUSF direktori, iqtisod fanlari doktori,
professor

M.R.Boltabayev – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

R.X.Ergashev – QarMII professori, iqtisod fanlari doktori

B.K.G‘oibnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor

I.S.To‘xliyev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

K.B.Urazov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Q.J.Mirzayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

B.I.Isroilov – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

G.M.Shodiyeva – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

S.N.Toshnazarov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

R.N.Normaxmatov – SamISI professori, texnika fanlari doktori

A.Bektemirov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Pardayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

M.T.Alimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Z.Dj.Adilova – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

Sh.O.Quvondiqov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

L.N.Xalikova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

F.A.Safarov – SamISI dotsenti, iqtisod fanlari doktori

A.M.Karimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

I.B.Mattiyev – SamISI professori, pedagogika fanlari doktori

B.F.Boronov – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

A.N.Xoliqulov – SamISI professori, iqtisod fanlari nomzodi

X.A.Raximov – SamISI dotsenti, PhD

S.A.Babanazarova – SamISI dotsenti, PhD

H.N.Ochilova – SamISI dotsenti v.b., PhD

I.R.Berdikulova – SamISI dotsenti v.b., PhD

A.Q.G‘apparov – SamISI dotsenti v.b., PhD

Xurshid Azamatovich Yunusov Tadbir va ko‘ngilochar xizmatlarni rivojlantirishda marketing strategiyalaridan foydalanish	154
Hamdam Iris o‘g‘li Allayorov Logistika axborot oqimlarini sun‘iy intellekt asosida optimallashtirish	159
Nodirjon Fayzullayevich Bekbutayev Monopoliyaga qarshi siyosatni amalga oshirishda davlat organi va hududiy boshqarmalar faoliyatining samaradorligi	163
Bekzodjon Sheraliyevich Oblakulov Improving private education customer loyalty and brand trust through the implementation of digital marketing strategies	167
Sadulla Shodiyevich Urazov, Laylo Obidjon qizi Abduraxmanova Ta‘lim muassasalarida tashkiy tuzilmaning boshqaruv samaradorligiga ta‘siri	170
MOLIYA, PUL MUOMALASI VA KREDIT	
Nuriddin Elamonovich Ernazarov Aksiz solig‘ining byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi muammolar	174
Шавкат Собирович Олтаев Рақамли иктисодиёт шароитида суверен фондларни самарали бошқариш масалалари	177
Madina Sanjar qizi Khotamkulova Corporate efficiency as a financial market participant	181
BUXGALTERIYA HISOBI, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT	
Komil Vaxromovich Urazov, Qahramon Hamidovich Vaxobov Pochta xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar xarajatlari hisobining o‘ziga xos xususiyatlari	186
Ortiq Eshnazarovich Ernazarov Xizmatlar sohasini chiziqli ekonometrik modellashtirish asosida tahlil qilish va prognozlashtirish	191
Тўлқин Исматулла ўғли Яхёев Қурилиш хизматлари кўрсатувчи корхоналарда 15 сон МХХС асосида даромадларни тан олиш	198
Jamshidbek Axmad ug‘li Abdurasulov Korxonalarni qayta tashkil etishning o‘zgartirish shaklida buxgalteriya hisobi va hisobotini MHXS asosida takomillashtirish	202
TA‘LIM, KADRLAR TAYYORLASH VA PEDAGOGIKA	
Умар Худайбердиев Мактабгача ва мактаб таълими - илм ва муваффақият калитидир	209
Bexzod Nematillayevich Gapparov OTM kichik guruhlarda temperamentga yo‘naltirilgan pedagogik model	212
Iltom Begmatdulobovich Mattiyev Chet tillarni o‘rganishda pedagogik texnologiyalarning o‘rni	216
Anvar Maxkamovich Soatov Talabalar temperamentiga mos akademik yuklama taqsimotining samaradorligi	221
E‘TIBORGA MOLIK MASALALAR	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Рамазон луғати Бахт нима?	225

<https://www.businessanalysisishub.com>. [Accessed: Dec. 18, 2024].

2. K. Campbell, “Hotel Advertising: The Complete Guide,” Cvent Blog, 2021. [Online]. Available: <https://www.cvent.com/en/blog/hospitality/hotel-advertising>

3. L. Fredericks, “Top Hotel Affiliate Marketing Strategies for Hotels,” Cvent Blog, 2021. [Online]. Available: <https://www.cvent.com/en/blog/hospitality/hotel-affiliate-marketing>

4. B. O. Sheraliyevich and M. Zarina, “Marketing Research and Customer Satisfaction of Nestle in Uzbekistan,” American Journal of Economics and Business Management, vol.5, no.6, pp.31–38,2022.

5. B. O. Sheraliyevich, K. Kadorkin, N. Akramov, R. Nuriddinov, and N. Abiyorov, “Market Analysis and Research of Nestle Company,” Journal of Marketing in Emerging Economies, vol. 3, no. 4, pp. 18–23, 2023.

6. B. O. Sheraliyevich, R. Erkinova, and M. Umedova, “Business Analysis and Marketing Report of Nestle,” Journal of Marketing in Emerging Economies, vol. 3, no. 4, pp. 24–28, 2023.

7. B. O. Sheraliyevich, “Human Resource Management in the Case of the Company Loblow,” The Seybold Report, vol. 18, no. 5, pp. 55–62, 2023.

8. Y. Chen, B2B, B2C and Virtual Enterprise Management Systems. Beijing, China: Academic Publisher, 2020. doi:10.46532/jebm.20201205.

9. B. Cova and R. Salle, Business-to-Business Marketing: A Relational Perspective. New York, NY, USA: Business Expert Press, 2008.

10. Forbes, “Augmented Reality Transforms Online Shopping Experiences,” Forbes, 2022. [Online]. Available: <https://www.forbes.com>.

Б.Облақулов	B.Oblaqulov
Формирование лояльности клиентов и доверия к бренду в частном образовании посредством экспериментов с цифровыми маркетинговыми стратегиями.	Raqamli marketing strategiyalarini tajroq etish orqali xususiy ta’lim mijozlarining sodoqligi va brend ishonchini orqalish
Аннотация. В данной статье анализируются лояльность и доверие к бренду с помощью стратегий цифрового маркетинга и предлагаются некоторые улучшения для достижения высокого уровня удовлетворённости клиентов. В статье также показано, как образовательные центры внедряют инструменты цифрового маркетинга, такие как SMM, Google Analytics и Ads, для увеличения спроса со стороны клиентов и повышения их доверия к бренду.	Аннотация. Ushbu maqola raqamli marketing strategiyalarini qo’llash va mijozlarning yuqori darajada qoniqishini ta’minlash uchun ba’zi takliflarni ishlab chiqish orqali sodiqlik va brend ishonchini tahlil qiladi. Ushbu maqolada, shuningdek, ta’lim markazlari mijozlar talabini oshirish va ularning brendga ishonchini oshirish uchun SMM, Google Analytics va Ads kabi raqamli marketing vositalarini qanday tatbiq etilayotgani ko’rsatilgan.
Ключевые слова: цифровой маркетинг, маркетинговая аналитика, инновации, SMM, Google Analytics, лояльность к бренду, доверие к бренду.	Калит so’zlar: raqamli marketing, marketing tahlillari, innovatsiyalar, SMM, Google analytics, brendga sodiqlik, brend ishonchi.

Sadulla Shodiyevich Urazov – SamISI, “Menejment” kafedrasida dotsenti v.b, PhD.

Laylo Obidjon qizi Abduraxmanova – SamISI, 1-kurs MMN-125 guruh magistranti

TA’LIM MUASSASALARIDA TASHKIY TUZILMANING BOSHQARUV SAMARADORLIGIGA TA’SIRI

<p>Аннотация. Mazkur maqolada ta’lim muassasalarida tashkiliy tuzilmaning boshqaruv samaradorligiga ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shu bilan birga ta’lim muassasalarida tashkiliy tuzilmani takomillashtirish, vakolat va mas’uliyatlarni aniq taqsimlash, boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish hamda raqamli boshqaruv mexanizmlarini joriy etish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.</p> <p>Калит so’zlar: ta’lim muassasasi, tashkiliy tuzilma, boshqaruv samaradorligi, menejment, vakolat va mas’uliyat, strategik boshqaruv, raqamli boshqaruv, inson resurslari, ta’lim sifati, monitoring.</p>
--

Кирish. Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim muassasalarining samarali faoliyat yuritishi ko’p jihatdan ularning tashkiliy tuzilmasi va boshqaruv tizimining qay darajada puxta shakllantirilganiga bog’liq. Chunki tashkiliy tuzilma ta’lim muassasasida vakolatlarining taqsimlanishi, boshqaruv qarorlarining qabul qilinishi, axborot oqimining harakati hamda inson resurslaridan foydalanish samaradorligini belgilab beradi. Noto’g’ri yoki eskirgan tashkiliy tuzilma boshqaruv jarayonlarining sekinlashuvi, mas’uliyatning noaniqligi va samaradorlikning pasayishiga olib keladi.

Bugungi kunda dunyo tajribasida ta’lim muassasalarida moslashuvchan, gorizontaal aloqalarga asoslangan va natijaga yo’naltirilgan tashkiliy tuzilmalar keng joriy etilmoqda. Bunday tuzilmalar strategik rejalashtirish, raqamli boshqaruv, ochiq muloqot va jamoaviy qaror

qabul qilishni qo‘llab-quvvatlaydi. O‘zbekistonda ham ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida muassasalarning tashkiliy tuzilmasini zamon talablari asosida qayta ko‘rib chiqish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Raqamli transformatsiya sharoitida samarali tashkiliy-boshqaruv modelini shakllantirish, inson resurslaridan unumli foydalanish va ichki boshqaruv aloqalarini rivojlantirish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish asosiy zaruriyatga aylanmoqda. Shuningdek, xorijiy tajribalar tahlil qilinib, ularning ta‘lim tizimining milliy xususiyatlariga mos holda tatbiq etish imkoniyatlari ilmiy maqolamizda nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan.

Shu bois, ta‘lim muassasalarida tashkiliy tuzilmaning boshqaruv samaradorligiga ta‘sirini ilmiy jihatdan tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va amaliy takliflar ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ta‘lim muassasalarining tashkiliy tuzilmasi va boshqaruv samaradorligi masalalari menejment va pedagogika fanlari doirasida keng o‘rganilgan. O‘zbekistonlik olimlar orasida A. Xolboyev ta‘lim muassasalarida boshqaruv tuzilmasining strategik rejalashtirish va rahbarlik kompetensiyalariga bevosita ta‘sir ko‘rsatishini ta‘kidlaydi¹. Uning fikricha, aniq vakolatlar va funksional bo‘linmalar mavjudligi boshqaruv jarayonining tizimlilikini ta‘minlaydi.

D. Turg‘unov tadqiqotlarida tashkiliy tuzilmani raqamli boshqaruv tizimlari bilan integratsiyalash masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan bo‘lib, u zamonaviy axborot texnologiyalari asosida shakllantirilgan tuzilma boshqaruv samaradorligini oshirishini asoslab beradi. Sh. Alimov esa ta‘lim muassasalarida monitoring va baholash tizimlarining samarali ishlashi aynan tashkiliy tuzilmaning to‘g‘ri tashkil etilishiga bog‘liqligini qayd etadi.

Xorijiy tadqiqotlarda P. Drucker tashkiliy tuzilmani natijaga yo‘naltirilgan boshqaruvning asosiy omili sifatida ko‘rib chiqadi H. Mintzberg tashkilot tuzilmalarining turlari va ularning boshqaruv samaradorligiga ta‘sirini tahlil qilgan² bo‘lsa, M. Fullan ta‘lim muassasalarida o‘zgarishlarni boshqarishda moslashuvchan tashkiliy modellarning ustuvorligini ta‘kidlaydi. Shuningdek, UNESCO, OECD va World Bank hisobotlarida ta‘lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirishda institutsional tuzilmaning muhim roli alohida qayd etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda ta‘lim muassasalarida tashkiliy tuzilmaning boshqaruv samaradorligiga ta‘sirini aniqlash asosiy maqsad qilib olindi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli va funksional yondashuvlarga asoslanib, pedagogik va menejment nazariyalari bilan uyg‘unlashtirildi.

Ilmiy ishda sifat va miqdoriy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Ma‘lumotlarni to‘plash jarayonida so‘rovnoma, yarim strukturali suhbatlar, hujjatlarni tahlil qilish va kuzatuv metodlari qo‘llanildi. So‘rovnoma orqali ta‘lim muassasalarini rahbarlari va xodimlarining tashkiliy tuzilma samaradorligi haqidagi fikrlari o‘rganildi. Suhbatlar yordamida esa boshqaruv vakolatlarining taqsimlanishi, qaror qabul qilish mexanizmlari va ichki aloqalar tizimi tahlil qilindi.

Olingan ma‘lumotlar statistik va taqqoslama tahlil asosida qayta ishlanib, muammolar va ularning yechimiga doir ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

Natija va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ta‘lim muassasalarida tashkiliy tuzilmaning aniq va moslashuvchan tashkil etilishi boshqaruv samaradorligiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, ko‘plab muassasalarda boshqaruv tuzilmasi markazlashgan bo‘lib, qaror qabul qilish jarayonlari ortiqcha byurokratik bosqichlardan iborat. Bu holat tezkorlik va innovatsion tashabbuslarning pasayishiga olib kelmoqda.

Kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, funksiyalar va mas‘uliyatlarning aniq belgilanmaganligi ayrim holatlarda takroriy vazifalar yoki boshqaruvdagi uzilishlarga sabab bo‘lmoqda. Shu bilan birga, ilg‘or ta‘lim muassasalarida gibrid va gorizontal aloqalarga asoslangan tashkiliy tuzilmalarning joriy etilishi boshqaruv samaradorligini oshirayotganligi aniqlandi. Bunday muassasalarda jamoaviy qaror qabul qilish, ochiq muloqot va raqamli boshqaruv platformalaridan foydalanish ijobiy natijalar bermoqda.

Tadqiqot natijalari asosida ta‘lim muassasalarida tashkiliy tuzilma elementlarining boshqaruv samaradorligiga ta‘siri 1-jadvalda aks ettirilgan.

¹ Xolboyev A. Ta‘lim muassasalarini boshqarish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

² Mintzberg H. Structure in Fives: Designing Effective Organizations. – Prentice Hall, 2019.

So‘rov natijalariga ko‘ra, respondentlarning 62 foizi o‘z ta‘lim muassasasida boshqaruv tuzilmasi yuqori darajada markazlashgan ekanligini ta‘kidlagan. Ushbu respondentlarning 48 foizi markazlashgan boshqaruv qaror qabul qilish jarayonini sekinlashtirishini, 14 foizi esa bu holat xodimlar tashabbusining cheklanishiga olib kelishini bildirgan. Shu bilan birga, respondentlarning 38 foizi nisbatan moslashuvchan boshqaruv tuzilmasi mavjudligini qayd etgan bo‘lib, ular orasida boshqaruv samaradorligi yuqori baholangan.

1-jadval.

Ta‘lim muassasalarida tashkiliy tuzilma elementlarining boshqaruv samaradorligiga ta‘siri¹

№	Tashkiliy tuzilma elementi	Boshqaruvdagi ahamiyati	Samaradorlikka ta‘siri
1	Vakolat va mas‘uliyatlarning aniq taqsimlanishi	Qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi	Yuqori
2	Funksional bo‘linmalar faoliyati	Vazifalarning tizimli bajarilishini ta‘minlaydi	Yuqori
3	Gorizontal boshqaruv aloqalari	Jamoaviy boshqaruv va muloqotni kuchaytiradi	O‘rtacha-yuqori
4	Raqamli boshqaruv tizimlari	Axborot almashinuvini optimallashtiradi	Yuqori
5	Monitoring va nazorat mexanizmlari	Natijadorlikni baholash imkonini beradi	O‘rtacha
6	Rahbarlik darajalari soni	Byurokratik to‘siqlarni belgilaydi	O‘rtacha

Vakolat va mas‘uliyatlarning taqsimlanishi bo‘yicha olingan natijalar ham muhim ahamiyatga ega. Respondentlarning 57 foizi vazifalar va mas‘uliyatlar to‘liq va aniq belgilanmaganligini bildirgan. Ushbu guruhdagi respondentlarning 41 foizi bu holat vazifalarning takrorlanishiga, 16 foizi esa boshqaruv jarayonlarida uzilishlar yuzaga kelishiga sabab bo‘layotganini ta‘kidlagan. Aksincha, vakolatlar aniq belgilangan muassasalarda faoliyat yurituvchi respondentlarning 72 foizi boshqaruv jarayonlari samarali tashkil etilganini e‘tirof etgan.

Gorizontal boshqaruv aloqalarining rivojlanganlik darajasi ham statistik jihatdan tahlil qilindi. Natijalarga ko‘ra, respondentlarning 46 foizi jamoaviy qaror qabul qilish mexanizmlari yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganini bildirgan. Shu bilan birga, gorizontal aloqalar rivojlangan muassasalarda ishlovchi respondentlarning 68 foizi boshqaruv samaradorligi va ichki muloqot sifati yuqori ekanligini qayd etgan.

Raqamli boshqaruv tizimlaridan foydalanish darajasi bo‘yicha tahlil natijalari quyidagicha: respondentlarning 51 foizi o‘z muassasasida raqamli boshqaruv vositalari (elektron hujjat aylanishi, onlayn monitoring, avtomatlashtirilgan hisobotlar) qisman joriy etilganini bildirgan. 29 foiz respondent raqamli boshqaruv tizimlari to‘liq joriy etilganini, 20 foiz esa ushbu tizimlardan deyarli foydalanilmasligini ta‘kidlagan. Raqamli boshqaruv tizimlari to‘liq joriy etilgan muassasalarda respondentlarning 76 foizi boshqaruv qarorlarining tezkorligi oshganini, 69 foizi esa shaffoflik ta‘minlanganini qayd etgan.

Monitoring va nazorat mexanizmlariga doir natijalar shuni ko‘rsatdiki, respondentlarning 58 foizi mavjud monitoring tizimlari samaradorlikni to‘liq aks ettirmasligini bildirgan. Shu bilan birga, samarali monitoring tizimi joriy etilgan muassasalarda respondentlarning 71 foizi boshqaruv qarorlarining sifati yaxshilanganini ta‘kidlagan.

Rahbarlik darajalari sonining ta‘siri bo‘yicha tahlil natijalari ham e‘tiborga molikdir. Respondentlarning 64 foizi rahbarlik bo‘g‘inlari sonining ko‘pligi byurokratik to‘siqlarni kuchaytirishini qayd etgan. Aksincha, optimallashtirilgan boshqaruv darajalariga ega muassasalarda respondentlarning 73 foizi tezkorlik va mas‘uliyatning oshganini e‘tirof etgan.

Umuman olganda, statistik tahlillar shuni ko‘rsatdiki, respondentlarning 78 foizi tashkiliy tuzilmani takomillashtirish boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, deb hisoblaydi. Bu natija tashkiliy tuzilmaning ta‘lim muassasalari faoliyatida strategik ahamiyatga ega ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

¹ Muallif tahlillari asosida ishlab chiqilgan

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari asosida shuni xulosa qilish mumkinki, ta’lim muassasalarida tashkiliy tuzilmaning to’g’ri va zamonaviy tashkil etilishi boshqaruv samaradorligini oshirishning asosiy shartlaridan biridir. Moslashuvchan va funksional tuzilma strategik rejalashtirishni samarali amalga oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va inson resurslarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Aniqlangan muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

birinchidan, ta’lim muassasalarida tashkiliy tuzilmani strategik maqsadlarga mos ravishda qayta ko’rib chiqish;

ikkinchidan, vakolat va mas’uliyatlarni aniq belgilash orqali boshqaruvdagi takrorlanishlarni kamaytirish;

uchinchidan, tashkiliy tuzilmani raqamli boshqaruv tizimlari bilan integratsiya qilish;

to’rtinchidan, gorizontaal boshqaruv aloqalarini rivojlantirish orqali jamoaviy boshqaruv madaniyatini shakllantirish.

Mazkur yondashuvlar ta’lim muassasalarining boshqaruv tizimini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish va ularning umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. S.Sh.Urazov, T.O.Umarov. Ta’lim menejmenti.- Samarqand iqtisodiyot va servis instituti - Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ nashriyoti, 2025 -236 b.
2. Xolboyev A. Ta’lim muassasalarini boshqarish nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent : Fan va texnologiya, 2020. - 256 b.
3. Alimov Sh. Oliy ta’lim tizimida menejment faoliyatining samaradorligini oshirish yo’llari. - Toshkent : Ilm Ziyo, 2019. - 198 b.
4. Turg’unov D. Zamonaviy menejment asoslari. - Toshkent : Yangi asr avlodi, 2021. - 312 b.
5. Yuldashev M. Ta’lim menejmenti: nazariya va amaliyot. - Samarqand, 2022. - 284 b.
6. To’xtayev M. Ta’lim muassasalarida innovatsion boshqaruv tizimi. - Toshkent : O’qituvchi, 2018. - 220 b.
7. Drucker P. Management: Tasks, Responsibilities, Practices. - New York : Harper & Row, 2018. - 416 p.
8. Mintzberg H. Structure in Fives: Designing Effective Organizations. - Englewood Cliffs : Prentice Hall, 2019. - 331 p.
9. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. - London : Routledge, 2020. - 302 p.
10. UNESCO Educational Management and Leadership. - Paris, 2022. - 145 p.

<p style="text-align: center;">С.Уразов, Л.Абдурахманова</p> <p style="text-align: center;">Влияние организационной структуры на эффективность управления в образовательных учреждениях</p> <p>Аннотация. В данной статье с научной точки зрения проанализировано влияние организационной структуры на эффективность управления в образовательных учреждениях. Наряду с этим особое внимание уделено вопросам совершенствования организационной структуры в образовательных учреждениях, чёткого распределения полномочий и ответственности, оптимизации управленческих процессов, а также внедрения механизмов цифрового управления.</p> <p>Ключевые слова: образовательное учреждение, организационная структура, эффективность управления, менеджмент, полномочия и ответственность, стратегическое управление, цифровое управление, человеческие ресурсы, качество образования, мониторинг.</p>	<p style="text-align: center;">S.Urazov, L.Abdurakhmanova</p> <p style="text-align: center;">The Impact of Organizational Structure on Management Effectiveness in Educational Institutions</p> <p>Abstract. This article scientifically analyzes the impact of organizational structure on management effectiveness in educational institutions. At the same time, special attention is paid to the issues of improving the organizational structure of educational institutions, clearly defining the distribution of authority and responsibility, optimizing management processes, and implementing digital management mechanisms.</p> <p>Keywords: educational institution, organizational structure, management effectiveness, management, authority and responsibility, strategic management, digital management, human resources, quality of education, monitoring.</p>
---	---

ISSN 2091-5187

☞ “SERVIS” ☞

Jurnal Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tahririyat
bo‘limida nashrga tayyorlandi.

06.03.2026 yilda terishga berildi. 19.03.2026 yilda bosishga ruxsat etildi. Ofset bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84_{1/8}. “Times” garniturasini. Ofset bosma usuli. Shartli bosma tabog‘i 15,4. Hisob-nashriyot tabog‘i 14,37. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 0031A/26

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo‘limida chop etildi.

Litsenziya № 025316.

Reestr № X-119112.

Manzil: Samarqand shahri, Shoxruh ko‘chasi, 60-uy.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.